


## Toshkent viloyatida kichik tadbirkorlik

2018 yil yanvar-iyunida 2,7 mingta yangi kichik korhona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 15,0% ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar sanoat tarmog'ida (24,3%), savdo sohasida (20,8%), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (17,8%), qurilishda tarmog'ida (12,6%), yashash va ovqatlanishda (8,5%), tashish va saqlashda (3,6%) tashkil etilgan.

### 2018 yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



2018 yilning yanvar–iyunida kichik tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan:  
– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 2736,5 mlrd. so`mni  
(jami sanoat ishlab chiqarishining 17,8%) yoki 2017 yilning  
yanvar–iyuniga nisbatan o`sish sur`ati 107,4% ni tashkil qildi;



– 1250,5 mlrd. so`mlik investitsiyalar (umumiyligi investitsiyalar  
hajmining 38,8%) o`zlashtirildi va 2017 yilning yanvar–iyuniga nisbatan  
o`sish sur`ati 178,2%ni tashkil qildi;



– 399,0 mlrd. so`mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 43,3%) bajarildi va 2017 yilning yanvar–iyuniga nisbatan o`sish sur`ati 128,5% ni tashkil qildi;



– 780,4 mlrd.so`mlik xizmatlar ko`rsatilib (jami xizmatlar xajmining 74,5%), 2017 yilning yanvar–iyuniga nisbatan o`sish sur`ati 119,0% ni tashkil qildi;




– chakana tovar aylanmasi umumiyligi hajmining 79,3% yoki 4950,4 mlrd. so`mi (o`sish sur`ati 103,5% ni tashkil qildi) shakllantirildi;

–131,2 mln. AQSh dollari (umumiyligi eksport hajmining 26,7%) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2017 yilga nisbatan 37,4 mln. AQSh dollariga yoki 39,9% ga ko`p;




– avtomobil transporti yuk aylanmasining 109,3%ga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 20,2%i) ko`payishi ta`minlandi;  
– yo`lovchi aylanmasining esa 112,3% ga (umumiyligi yo`lovchi aylanmasining 6,8% ) ko`payishi ta`minlandi;

### Kichik tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmiga nisbatan% da)




### 2018 yil yanvar-iyunida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur'ati




Hududlar bo`yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Zangiota tumani (356,3 mlrd. so'm), Chirchiq shahri (324,9 mlrd. so'm) va Bo'stonliq (270,4 mlrd. so'm) tumani hissasiga to'g'ri keladi.

## 2018 yil yanvar-iyunida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va sur'ati



Hududlar bo`yicha ko`proq chakana tovar aylanmasi hajmi Zangiota tumani (595,8 mlrd.so'm), Olmaliq shahar (492,0 mlrd.so'm) va Qibray tumani (340,5 mlrd.so'm) hissasiga to'g'ri keladi.

**2018 yil yanvar-iyunida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik  
(biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va sur`ati**



Hududlar bo`yicha ko`proq xizmatlar hajmi Zangiota tumani (112,4 mlrd.so'm), Toshkent tumani (104,6 mlrd.so'm) va Qibray tumani (71,3 mlrd.so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2018 yil yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning  
hududlar bo`yicha ulushi  
(% da)**

	<b>Sanoat</b>	<b>Qurilish</b>	<b>Xizmatlar</b>
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>17,8</b>	<b>43,3</b>	<b>74,5</b>
Nurafshon sh.	14,0	84,9	8,5
Olmaliq sh.	3,0	12,7	86,3
Angren sh.	15,0	57,8	96,2
Bekobod sh.	1,6	49,7	91,6
Ohangaron sh.	5,1	69,8	80,9
Chirchiq sh.	23,3	76,5	85,5
Yangiyo'l sh.	50,2	69,5	98,1
Oqqo'rg'on t.	65,1	40,6	96,3
Ohangaron t.	29,7	48,4	98,6
Bekobod t.	58,4	82,8	98,6
Bo'stonliq t.	45,5	31,4	84,8
Bo'ka t.	55,4	75,8	98,0
Quyichirchiq t.	38,0	26,9	100,0
Zangiota t.	30,3	27,3	83,5
Yuqorichirchiq t.	79,7	48,5	82,5
Qibray t.	27,7	46,9	61,2
Parkent t.	71,8	64,6	96,8
Piskent t.	53,6	73,2	96,1
O'rtachirchiq t.	63,5	28,7	86,0
Chinoz t.	49,3	55,0	71,6
Yangiyo'l t.	42,4	82,1	99,3
Toshkent t.	57,7	5,7	86,7

Hududlar bo`yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Yuqorichichiq tumani (79,7%), Parkent tumani (71,8%), Oqqo'rg'on tumani (65,1%), va O'rtachirchiq tumani (63,5%) tashkil etadi.

Qurilishda Nurafson shahar (84,9%), Bekobod tumani (82,8%), Yangiyo'l tumani (82,1%) va Chirchiq shahri (76,5%) yuqori ulushga ega.


Xizmatlar sohasida Quyichirchiq (100,0%), Yangiyo'l (99,3%), Ohangaron (98,6%) va Bekobod (98,6%) tumanlari yuqori ulushni tashkil etadi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha 2018 yil II - chorak yakunlariga ko`ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvalar o`tkazildi. Unda 1150 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi.

Kuzatuv ma`lumotlari tahlili, respondentlarning 26,7% iqtisodiy vaziyatni qulay va 67,7% esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida – 26,8% va 70,4%, qurilishda sohasida – 21,0% va 66,7%, xizmatlar sohasida – 23,2% va 71,6%, qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 25,0% va 67,2%, sanoatda – 35,0% va 58,8% ni tashkil qilganini ko`rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar qurilishda – 12,3%, savdoda – 2,8%, qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 7,8%, xizmatlarda – 5,2%, sanoatda – 6,2%ni tashkil qildi.

## Iqtisodiy vaziyatni baholash 2018 yil II–chorak uchun



**Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin** uch oyda 66,7% sanoat korxonalari, 60,0% – savdo, 59,8% – xizmatlar, 64,1% – qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va 60,5% – qurilish tarmog`ida kutilmoqda.

## Iqtisodiy vaziyatdagi o'zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning biznes muhitni yahshilash uchun kurashayotganini va respondentlar yaqin istiqbolda umumiyl iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.